

ALISHER NAVOIY TAVR G'AZALLARINING G'OYAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI

Hojiyeva Sayyora
Buxoro davlat universiteti magistri

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy tavr g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Devon Foni, tavr, Xoja Hofiz Sherazi, dunyoviy ishq, ilohiy ishq

Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to'plami”ning 18-,19-va 20-jiddlari “Devoni Foni”ni o‘z ichiga oladi. Sharq mumtoz adabiyotida tartib berilgan barcha devonlar singari ”Devoni Foni”da ham markaziy o'rinni g'azal janri egallaydi. Devondagi g'azallar muxtara', tatabbu va tavr tarzida yaratilgan.

Tavr arabcha “biror narsa atrofida aylanish”, “tarz”, “yo'sin”, “uslub” ma'nolarini anglatadi. Bunday she'rlarda vazn, qofiya va radif mezon qilib olinmaydi, balki o'zga she'rdagi uslub va mazmundagi she'riy talqinga rioya qilinadi. Devondagi aksariyat g'azallar Alisher Navoiyning buyuk forsiy salaflari Amir Xusrav Dehlaviy (32 tatabbu', 1 tavrda), Xoja Hofiz Sherazi (211 tatabbu', 20 tavrda), Shayx Muslihiddin Sa'diy Sherazi (22 tatabbu', 2 tavrda), xalaflari Abdurahmon Jomiy (31 tatabbu', 8 tavrda) Xoja Kamol, Maxdum kabi ijodkorlarning g'azallaridan ta'sirlanib yaratilgan.¹

Devondagi eng ko'p tavr g'azallar Xoja Hofiz Sheraziغا bitilganligini kuzatish mumkin. Bunday g'azallarda Xoja Hofiz Sherazi uslubidan mohirona foydalangan.

On bevafo chi shaved, kin azar so'i mo kunad,
Va'da kunad vafov ba va'da vafo kunad.

Tarjimasi:

U bevafo yor biz tomonga nazar qilsa nima bo'larkin,
Vafo qilaman deb va'da qilgach, va'daga va'fo qilsa nima bo'larkin?

Mazkur g'azal aruz she'r tizimining hazaji musammani maqsur (taqtesi: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafuvlu V---/V---/V---/---) vaznida yozilgan. Shoир matla'da: “Bevafo yorning oshiqqa bir nazar tashlasa nima bo'larkin, began va'dasiga vafo qilsa nima bo'larkin”- deya tajohuli orifona san'atining go'zal namunasini yaratgan.

Alisher Navoiyning yuksak mahorati shundaki, bir baytning o'zida bir nechta badiiy-tasviriy vositalardan o'rinali foydalana bilgan. Jumladan matla'ning 2-misrasida vafo-va'da, va'da-vafo so'zlari teskari holda qo'llanilib tardi aks san'ati yuzaga kelgan. Bundan tashqari, vafo-bevafo kabi o'zakdosh so'zlarning qo'llanilishidan ishtiyoq san'ati hosil bo'lgan.

Shoir g'azalning 2-baytida mug'bacha, mug' singari istilohlrni qo'llash orqali g'azalning tasavvufiy xarakterda ekanini to'la-to'kis ochib bergen:

On ko' chavri mug'bachagon dar shikoyat ast,
Boyad ba piri dayri mug'on ilticho kunad.

Tarjimasi:

Mug'bachalar jabridan shikoyat qiladigan odam

¹ Dilnavoz Yusupova. “Devoni Foni”ning janrlar ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Mug'lar dayrining piriga iltijo qilishi lozim.

3-baytda shohlarni nazar-pisand qilmay ularga iltifot ko'rsatmagan sho'x (yor)ning qanday qilib uning kabi bir mast-u gadoga iltifot ko'rsatishini ifodalash maqsadida ushbu baytda tajohuli orifona, tanosub va istiora san'atlaridan umumlashma tarzda foydalangan:

Sho'xe ki iltifot ba so'i shahon nakard,

Bo man ki mast-u rind-u gadoyam kucho kunad

Tarjimasi:

Shohlarga iltifot qilmagan u sho'x

Bizlardek mast-u rind-u gadolarga qachon iltifot qilsin?

4-bayt misralari tarkibida uchraydigan soqiy, jom, sharob so'zlaridan anglash mumkinki, g'azal ma'no jihatdan rindona g'azallar sirasiga kiradi:

Soqi, ki badi umre agar doradam sharob

Man nogirifta chom, vay az kaf raho kunad.

Tarjimasi:

Soqiy umrida bir marta menga sharob tutsa, men qo'limga olmay turib,

U uzatib turgan jomni yerga tushirib yuboradi.

Shoir ushbu baytda soqiy, sharob, jom so'zlarini qo'llab tanosub san'ati orqali oshiqning ma'shuqa visoliga yetmay turib undan ayrilganini ifodalaydi. Va bu baytda yor deb zimdan Olloh nazarda tutilgan.

5- baytda "Tabib o'zi kasal bo'lsa dardini kimga aytadi?" tarzidagi murojaat o'z aksini topgan:

Har ch-oyadat ba pesh chun beixtiyor tust,

Darvesh bo ki shikva zi chunu charo kunad.

Tarjimasi:

Boshingga nimaiki kelsa ixtiyorsizsan, darvesh

Kishi: Nima uchun, nimaga? deb kimga shikoyat qila oladi?

6-baytda ma'shuqa dardida ado bo'lган oshiq, uning marhamatidan, rahm qilishidan umidvor bo'ladi:

Ushshoqro zi bahri dili xesh rahm kard,

Shoyad ba in g'arib zi bahri Xudo kunand.

Tarjimasi:

Yor o'z ko'nglicha oshiqlarga rahm qildi,

Zora Tangri uchun men g'aribga ham rahm qilsa.

7-baytda shoир oshiqning zor-u iltijo bilan qilgan gunohlarini takabbur shayxlarning ikkiyuzlamachilik bilan qilgan savoblaridan afzal ekanligini tazod san'ati vositasida tasvirlab bergen:

May deh ki churmí mob a du sad zori-yu niyoz,

Z-on zuhdbeh, ki shayx ba uchbu riyo kunad

Tarjimasi:

May ber o'p zor-u niyoz bilan qilgan gunohimiz

Shayxning takabburlik va riyo bilan qilgan savobidan yaxshiroqdir.

8-baytda shoir oshiq ruhining yor ko'yidan qaytishga imkonsizligini, go'yo qush o'z gulzoriga qaytishga qurbi yetmagani kabi hayotiy misolni keltirish orqali tamsilning go'zal namunasini keltiradi.

Ro'ham ba ko'i do'st shudu nestash iloch,
Murg'e ki so'i gulshani asli havo kunad.

Tarjimasi:

Qush o'z gulzoriga uchib borishga qurbi yetmaganidek,
Mening ruhimning ham do'st ko'yidan qaytishga iloji yo'q.

Shoir maqta'da oshiqning abadiy visolni zabt etishi uchun yo'qlik sahrosini ixtiyor etishi lozimligini uqtiradi. Shuningdek baytda foni va fano kabi so'zlarni qo'llash orqali ishtiqoq san'atini yuzaga keltiradi.

Foni, ki xost Mulki baqo, fath gardadash
Nabvad achab, ki mayl ba dashti fano kunad

Tarjimasi:

Foni mangulik mulkini fath qilishni istarkan,
U fano dashtini mayl etsa, ajab emas.

Shoirning keyingi tavr g'azalini tahlil qilsak.

Dar tavri Xocha

Xush on rinde, ki az davron dilash chun zangi g'am girad
Safoli maykada bar kaf ba choi chomi Cham girad.

Chu soqi az pai sog'ar gazak ham lab-balab baxshad,
Mani Devona mexoham, ki sog'ar dam-badam girad.

Shaved chun oshiq-u may no'shad, az man xortar bini,
Kase ko' dar harimi zuhd xudro mo'htaram girad.

Chu doram sim-u zar machmui haqqi mayfurusht ast on,
Va gar on sarf shud, boyad garavroxirqa ham girad.

Naboshad dar Acham v-andar Arab chun mohi man shohe,
Ki chun mohe arab tole shaved Mulki Acham girad.

Bad on monad, ki Yusufro ba simi qalb sozad bay,
Kase k-o' gavhari ma'ni dihad v-on gah diram girad.

Chu Foni, har ki xohad davlati boqi, magar on kas
Vuchudi xesh karda murtafe rohi adam girad.

Yetti baytli bu g'azal hazaji musammani solim bahrida yozilgan (mafoiylun mafoiylun mafoiylun). Mazmuniga ko'ra oshiqona, ya'ni oshiqning hijrondagi izardalarini, kechinma-hislarini ifodalaydi. Shu jihatdan uni sharhi hol usulida yozilgan asarlari sirasiga kiritish mumkin. Ammo zohiriylar bilap oshiqona bo'lib ko'ringan ushbu gazalda orifona (tasavvufiy) ma'nolar ham ifoda etiladi, umuman, Alisher Navoiyning aksar g'azallarida zohiriylar va botiniy ma'no, «dunyoviy» ishq bilan «ilohiy ishq», boshqacha aytganda, «majoziy» ma'nolar bilan «haqiqiy» ma'no birga qo'shilib, biri ikkinchisini taqozo etib keladi. G'azalda boshdan oxirigacha yor go'zalligi turli obrazlar asosida qiyoslanib boriladi, tashbeh, talmeh va istioralar g'azal badiiyatini yanada mukammallashtirgan. Oshiqning hijroni, ayriliqdagi holati — tun, visol damlari — tong, yoruglik. Oshiq inson hijron, ayriliq tunidan qutulishga va yor diydoriga musharrraf bo'lib, farah topishga talpinadi, hijrondagi azoblaridan zorlanadi, oxirida esa tong otib, vasl umidi shu'lesi ko'rindi. Endi baytlar sharhiga kelsak:

1-bayt

Du zulf kon mahi nomehribonzi tob akfand,
Niqob bar mahu burqa bar oftob afkand.

Baytning zohiriylar ma'nosi yaqqol ko'rinib turibdi. Zulf — ayolning chakka kokili, yoki, umuman, ayol sochi. Oraz yuz, chehra ma'nosini beradi Shoir oshiqlarga rahm-shafqatni bilmaydigan oy (yor) ikki zulfini yoyganda, uning g'zalligini ko'rib osmondag'i oy yuziga niqob oldi, quyosh esa yuziga burqa tashlab oldi. Shoir baytda yor go'zalligini ta'riflashda mubolag'a san'atidan unumli foydalanganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, yorga nisbatan oy sifatining berilishi istiora san'atini yuzaga keltirgan.

Ammo baytning tasavvufiy ma'nosi ham bor. Olloh tajalli etganda, ya'ni ko'rinish berganda butun borliq uning go'zal jilvasini ko'rib hayratdan yuzini berkitdi. Alisher Navoiyning ulug'vorligi shundaki, unda zohiriylar va botiniylar ma'nolar, ya'ni ishqilohiy va ishqimajoziy ifodalari bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to'ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishqilohiy tasviridan ishqilohiy tasviriga yoki aksincha holatga oson o'tiladi, kitobxon goh bu ma'nodan, goh u ma'nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi. Ushbu g'azalda ham shuni kuzatish qiyin emas, unda ishq iztirobi va oshiq azobi, dardli o'rtanishlar tasvirlanadi ham shu bilan barobar, muayyan insoniy kechinmalardan voqif bo'lasiz.

2-bayt

Ba tarfi mus'hafi oraz namud halqayı zulf,
Nishonaro pari tovus dar kitob afkand.

Ushbu baytda shoir yor yuzi kitobiga tushib turgan sochlarini tovus patidan yasab kitob orasiga solib qo'yilgan xatcho'pga o'xshatib tashbeh asosida tasvirlab bergen. Baytda qo'llangan yor yuzi kitobi istiorali tasvir orqali yorning, ya'ni haq jamolining muqaddasligiga ishora qilgan.

3-bayt

Muoshironro bedor kard bahri sabuh
Maro chu did ravon xeshro ba xob afkand

Tarjimasi:

U suhbatdoshlarini tong mayi uchun uyg'otdi,
Meni ko'rdi-yu, darrov o'zini uyquga soldi.

O'z-o'zidan ayonki, Navoiy tilga olgan may biz bilgan ichimlik emas. Shoир baytda sira ham buni nazarda tutmagan. Aksincha taqvodor va pokdomon bo'lган Navoiy o'z zamonida mayparast, sharobxo'r kishilarni tanqid ostiga olib, sharobni "barcha yaramasliklarning onasi" deb atagan. Ushbu g'azalda shoir mayni ilohiy ma'rifikat, donish sifatida haqqa yetishish vositasi deb bilgan. Shunday qilib ma'rifikat sirlaridan voqif bo'lган shoirning suhbatdoshlarini ham ushbu sir-asrordan xabardorlikka uyg'otishi, ularning esa ma'rifikatdan bexabar uqlab yotishi o'zaro zidlantirilib, tazod san'ati asosida ifodalangan.

4-bayt

Ba dast chomi murodash hamesha purmay bod,
Maro ba dayri mug'on on ki dar sharob afkand.

Tarjimasi:

Mug'lar dayrida meni sharobga tashlagan kishining
Hamisha murod jomi may bilan to'la bo'lsin.

Baytda qo'llangan mug', dayr, sharob, may va jom istilohlari shoir aynan ilohiy ishq, haq vasliga yetishish haqida gapirayotganini anglatadi va ma'no jihatdan bir-birini taqozo etuvchi bu so'zlar orqali tanosub san'ati hosil qilingan. Shoir o'zini haq vasliga erishish yo'lida komillik sari boshlaganlardan benihoya minnatdorligini bildiryapti.

5-bayt

Ba obi Xizr magar kard zahro mamzuj,
Kase ki obi Xizr dar sharobi nob afkand.

Bilamizki, Xizr suvi-abadiylik, mangu hayot ramzi sanaladi. Shoir mangulik suviga sharobning qo'shilishini go'yoki unga zahar aralashtirgan kabidir deya tasvirlab o'tgan va shu bilan talmeh san'atiga ishora qilgan.

6-bayt

Digar ba la'li mayolud soqiy sarmast,
Ba chonam otash-u dar chishmam iztirob afkand.

Soqiy-tasavvufda tariqat yo'liga kirgan, solikni to'g'ri yo'lga boshlab boruvchi piri murshid, may-ishq, pir tomonidan beriladigan ma'rifat, fayz ramzi hisoblanadi. Ya'ni lirik qahramon piri murshiddan qalbini barcha kirliklardan tozalab, Haqqa bo'lgan muhabbatini oliy cho'qqiga yetkazishga xizmat qiluvchi, g'ayb asrorlaridan boxabar etib, o'zini ilohga yaqinlashishga yordam beradigan ma'rifatdan bahramand qilganligidan baxtiyor.

7-bayt

Zi ishq bo chigari so'xta buvad, Foni, Chu muflise, ki dar otash chigarkabob afkand
Baytda lirik qahramon ishq o'tidan kuygan jigar bilan go'yoki jigar kabob qilib o'tirgan kambag'alga qiyoslanib ajoyib tashbeh qilingan.

Umuman olganda, ushbu g'azal tasavvufiy xarakterda yozilgan bo'lib, boshdan-oxir Olloh vasliga yetishish yo'lidagi ilohiy ishq iztiroblari kuylangan.

"Devoni Foni"dan o'r'in olgan forsiy tildagi tavr g'azallarning tub mohiyatida tasavvuf ilmi yotadi: Olloh ishqqi, komillik sirlaridan voqif bo'lish kabi g'oyalar asosiy o'r'in egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.: Fan. 1987-2003-yillar
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. T.: Fan. 1983-y
3. N.K.Nurmuhamedov. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. Fan. T.:1979-y
4. M.Asadov. Rindona ma'no va ruhiyat tasviri. T.: Tafakkur. 2019-y
5. N.Bekova. Navoiy-Foniyning turkiy va forsiy g'azallarida badiiy mahorat masalasi
6. D. Yusupova. "Devoni Foni"ning janrlar ko'lami, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari.